



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Statistik Kuzatish, Uning Mohiyati Va Asosiy Shakllari

**Arzikulov Otabek Ali o'g'li**

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasи dotsenti

**Tog‘ayeva Munisa Norbobo qizi**

Jizzax politexnika instituti Servis fakulteti 532-23 BH-A guruhi talabasi

### ANNONATATSIYA

Mazkur maqolada statistik kuzatishning mohiyati, uning jamiyat va iqtisodiyot uchun ahamiyati, shuningdek, statistik kuzatishning asosiy shakllari batafsil tahlil qilinadi. Statistik kuzatish jamiyatdagi turli hodisalar va jarayonlarni to‘plash, tahlil qilish va ular asosida xulosalar chiqarish uchun ma'lumot yig‘ish usuli sifatida muhim rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** Statistik kuzatish,yoppasiga kuzatish, qisman kuzatish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, uzluksiz kuzatish, fursatl kuzatish, bir yo‘la kuzatish.

### Kirish

Statistika fanining asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilish uchun ishonchli ma'lumotlar yig‘ishdir. Statistik kuzatish bu jarayonning dastlabki bosqichidir. Ushbu bosqichda yig‘ilgan ma'lumotlar kelajakda tahlil va xulosalar chiqarish uchun xizmat qiladi. Statistik kuzatish har qanday statistik tadqiqot ishlarining dastlabki, birinchi bosqichidir.Statistik kuzatish deb, ijtimoiy hayot xodisa va jarayonlari to‘grisidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda rejali, ilmiy asosda to‘plashdir. Statistik kuzatish orqali jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jabhalarida sodir bo‘layotgan jarayonlar haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi. Bu usul faktlarni tizimli va aniq o‘rganishni talab qiladi.Har qanday statistik kuzatishda amalga oshiriladigan ishlarning quyidagi uch bosqichi farq qilinadi:

- kuzatishga tayyorgarlik
- ma'lumotlarni bevosita yig‘ish;
- qayta ishlov berishdan oldin, to‘plangan ma'lumotlarni nazorat qilish

### Asosiy qism


Statistik kuzatish ikki shaklda – statistik hisobot va maxsus uyushtirilgan statistik kuzatishlar (tekshirishlar) shaklida tashkil etiladi. O‘rganilayotgan to‘plam birliklarini o‘z ichiga qamrab olishiga qarab, statistik kuzatish ikki turga: yoppasiga kuzatish va qisman kuzatishga bo‘linadi. Yoppasiga kuzatishda to‘plam birliklarining barchasi kuzatiladi. Qisman kuzatishda o‘rganilayotgan to‘plam birliklarining bir qismi kuzatishga jalb qilinadi. Qisman kuzatish to‘rtta turga: anketa orqali kuzatish, monografik tasvirlash, asosiy massivni kuzatish, tanlab kuzatishga

bo'linadi. Statistiki kuzatish informatsiya etkazib beruvchi subektlar kategoriyalariiga qarab quyidagi shakllarga bolinadi:

- Mamuriy malumotlarni toplash. Mamuriy idoralar(soliq, bojxona, nikohdan otkazish va x.k.) statistika organlariga oz faoliyatları haqida malumotlarni pulsiz va soralgan vaqtida etkazib berishga majburdirlar.
- Boshlangich statistik malumotlarni toplash. Royxatdan otgan barcha tashkilot, korxona, tadbirkorlar topshiradigan statistik hisobotlar orqali toplanadi.
- Statistik organlar toplagan malumot. Statistika organlari uy xojaligini organish uchun maxsus tanlab kuzatishlar otkazishadi, aholi royxati va boshqa maxsus kuzatishlar yordamida toplangan malumot.

Maxsus tashkil qilingan statistik kuzatishlarni voqeа va hodisalarning sodir bo'lishini qayd qilish vaqtiga qarab uch turga – uzlusiz, fursatlari va bir yo'la kuzatishga ajratish mumkin.Uzlusiz kuzatish deganda hodisalar ro'y berishi bilanoq qayd qilinadigan kuzatish tushuniladi. Masalan, bola tug'ilishi, nikohdan o'tish kabi voqeа (hodisa)lar sodir bo'lishi bilanoq, ya'ni o'sha kunning o'zidayoq qayd etiladi.Fursathi kuzatish deganda ma'lum muddatlarda o'tkaziladigan kuzatishlar tushuniladi. Masalan, aholi ro'yxati va boshqalar.Bir yo'la kuzatish deb birorta masalani echish uchun o'tkazilgan kuzatishga aytildi. Masalan, savdo korxonalarini jihozlanish darajasining bozor iqtisodiyoti talablariga javob berishi va bermasligini o'rganish uchun maxsus kuzatish o'tkazish. Bunday kuzatishni keyinchalik o'tkazmaslik ham, zaruriyat tug'ilsa, yana o'tkazish ham mumkin.

Statistik kuzatishning dasturiy-uslubiy va tashkiliy unsurlarini tashkil etadi (1-rasm).



Statistik kuzatishning ahamiyati

- Ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni aniqlash.
- Rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilish.
- Davlat boshqaruvi uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilishda yordam berish.
- Prognozlash uchun ishonchli ma'lumot manbai.

### Xulosa

Statistik kuzatish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri va samarali boshqarishda muhim o'rinn tutadi. U orqali yig'ilgan ma'lumotlar jamiyatning turli sohalarida samarali ishlammalarni amalga oshirishga imkon beradi. Statistik kuzatishning turli shakllarini qo'llash orqali turli jarayonlarning chuqur tahlilini o'tkazish mumkin. Shu sababli, statistika fani va uning usullarini mukammal

o‘rganish har bir mutaxassis uchun muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Соатов Н.М., Набиев Х., Набиев Д., Тиллахўжаева Г.Н., Статистика. Дарслик. - Т.: ТДИУ, 2011.
2. Шодиев Х. ва Хабибуллаев И. Статистика бўйича практикум. – Т.: Тафаккур бўстони, 2012.
3. Arzikulov O. ECONOMIC-STATISTICAL ANALYSIS OF THE REGIONAL DEVELOPMENT OF SMALL ENTERPRISES AND MICRO-FIRMS IN THE CONDITIONS OF ACCELERATED ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 92-105.
4. Arzikulov O. A. Artificial intelligence to increase the efficiency of small businesses //ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (100). – 2021. – С. 412-415.
5. Arzikulov O. A. THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN DEVELOPED COUNTRIES //Экономика и социум. – 2019. – №. 12. – С. 30-33.
6. Ali o‘g‘li A. O. RAQAMLI IQTISODIYOTNING JADALLASHUVIDA JIZZAX VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING ASOSIY JIHATLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 94-96.
7. Otabek, A., & Dilshod, T. (2023). TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH YO‘LLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 158-167.
8. Otabek, A., & Oybek, R. (2023). Statistical study of accounting reports in manufacturing enterprises. *Academia Science Repository*, 4(04), 96-104. dotsent, Jizzax politexnika institute
9. Кузьмина, С. Н., & Атамуратова, Г. М. (2023). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 11-16.